

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLLARDA RASM CHIZISH TEXNIKASINI SHAKLLANTIRISH

Muxirov Davron Qo'nish o'g'li

Toshkent viloyati angren shahar

pedagogika kolleji bo'lim boshlig'i

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lif tashkilotlarda tasviriy faoliyat turlari, ularning mazmuni, tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda aqliy, axloqiy, estetik tarbiya turlarini rivojlantirish, irodaning sifatlari-boshlagan ishini oxiriga yetkazish, oldiga maqsad qo'yib, o'shani bajarishga tomon intilish, qiyinchiliklarni yengish, o'rtoqlariga yordamlashish kabi xususiyatlar haqida tushuncha, ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: Tasviriy faoliyat, badiiy ijod, rasm chizish, estetik sezgi, san'at asarlari.

Kirish. Bolalarni rasm chizishga o'rgatish, odatda, bolaning taraqqiyotini kuzatishni va yangi tadqiqot usullarini taklif qilishni o'z ichiga oladi. Besh yoshga to'limgan bolalar uchun ota-onalar rasm chizishni o'rganish uchun faqat vaqt, joy, vositalar va yordam beradi. Keyingi yoshda siz bolangizga yangi ko'nikmalarni o'rgatishingiz mumkin, masalan, kuzatuvdan rasm chizish, mashq qilish va mutanosib ravishda rasm chizish. Bolani o'z uslubini yoki yondashuvini o'zgartirishga majburlamaslikka harakat qiling, tanqid yoki tuzatish taklif qilmang.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 30 sentabrdagi "Maktabgacha ta'lif tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmoni hamda "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lif vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risidagi qaroriga muvofiq bu sohada yangi tizim yaratildi. Yangi vazirlik oldiga maktabgacha ta'lif sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, maktabgacha ta'lif tashkilotlari davlat va nodavlat tarmog'ini kengaytirish va

moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni har tomonlama intellektual, ma'nnaviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash vazifalari qo'yildi. Buning o'rniga, qo'llab-quvvatlang, kuzatib boring va ochiq fikrli savollar bering, bu sizning bolangizga rassomning ruhini yo'naltirishga yordam beradi va ko'proq tafsilotlar va imkoniyatlarni tasavvur qiladi. Mazmunli rasm chizishning asosiy maqsadi bolaning atrof-muhitdan olgan taassurotlarini ifodalashga o'rgatishdir. Mazmunli rasm-bu bir necha mazmunning ma'lum rangda tasvirlanishini tushuniladi. Bolalar qaysi mazmun bo'yicha rasm chizadilar? Bolalar kichik hikoya, ertak asosida va bolalarni o'rab turgan tevarak-atrofni, tabiatni chizishga harakat qiladilar. Bolalar tomonidan chizilgan «Biz ta'tilda» va «Kech kuz» rasmlari bunga misol bo'la oladi. Bolalar bilan olib boriladigan bunday mashg'ulotlar ularning har tomonlama kamol topishiga yordam beradi. Bunda bolalarning aqliy qobiliyati rivojlanadi. Bu bolada asta-sekinlik bilan rivojlanadi, shuning uchun mazmunli rasm chizish o'rta guruhdan boshlab kiritilgan. Bunda ham yonma-yon turgan 2-3 ta predmetni tasviriy o'rgatiladi. Mazmunni tasvirlashda predmetlarning bir-biridan ajratish uchun uning o'lchamini, fazodagi o'rinalariga qarab, predmetlarning katta yoki kichikligini o'rgatish kerak. Maktabgacha yoshdagi bola uchun predmetlar orasidagi fazoviy munosabatlarni farqlay olish juda qiyin. Mazmunli rasm chizishni, o'rgatishning umumiyligi vazifalari quyidagilar:

Mavzuning mazmunini ifodalashga uning asosini ajratishga o'rgatish.

- Obyektlar orasidagi o'zaro aloqani tasvirlashga o'rgatish.
- Obyektlar orasidagi proporsional joylashuvni tasvirlashga va ularning fazodagi o'rinalarini ko'rsatishga o'rgatish.

Maktabgacha ta'lim muassasasida bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatishda rasm turlari.

Rasm chizish - predmet va hodisalarni grafika-rassomlik usulida tasvirlash bo'lib, uning asosi kolorit, shakl va kompozitsiyadir. Predmetni

kuzatar ekanlar, bolalar rasmda uning xarakterli xususiyatlarini ifodalaydilar; badiiy obraz yaratar ekanlar, mazmunni aks ettirishni o'rganadilar; rasm chizish texnikasining boshlang'ich malakalarini asta-sekin egallab, naqshning ba'zi elementlarini o'zlashtiradilar (dekorativ rasm chizishda):

Maktabgacha ta'lif muassasasida bolalarni tasviriy faoliyatga o'rgatishda rasm asosiy o'rinni egallaydi va uchta turni o'z ichiga oladi:

- Alovida predmetlarni chizish.
- Mazmunli rasm chizish.
- Dekorativ rasm chizish.

Tasviriy faoliyatga o'rgatishning asosiy vazifasi—tevarak-atrofdagi borliqni tasavvur qilishda bolalarga yordam berish. Ularda kuzatuvchanlikni rivojlantirmoq, estetik go'zallik hissini tarbiyalamoq, hamda tasvirlab berish usullarini o'rgatmoqdir. Bu bilan birga tasviriy faoliyatning eng asosiy vazifasi—ma'lum bir yosh uchun mos tasviriy materiallari bilan turli xil predmetlarning turli timsollarini yaratish kabi ijodiy bolalarda shakllantirish amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lif muassasasida alovida predmetlarning rasmini chizishga o'rgatishning vazifalari

Psixologlarning tadqiqotlariga ko'ra, bitta predmetni boshqa predmetlar orasidan ajratib olish uchun bolaga shu predmetni idrok qilishda predmetning shaklini bilishga yordam berar ekan. Shakllarni tasvirlash jarayonidagi xatoliklar faqatgina bolaning noto'g'ri tushunchalari va ko'nikmalarning yetarli emasligi emas, balki predmetni to'g'ri idrok etishni bilmasligi bilan tushuntiriladi. Bolaning tasvirlay olish qobiliyati hali yaxshi rivojlanmagani uchun uning oldida fikr yuritib tasvirlash kabi qiyinchiliklari ham turadi. Rasmda shakl to'g'ri kontur bilan chegaralab chiqilgan, lekin shu bilan birga ishning 1-bosqichlari chiziqlarni to'g'ri aniq chizish va konturlarni (aniqlash) tasviriy, rasmda ishlash jarayonining vazifasi bo'lib hisoblanmaydi. Agar umumiyligi shakl topilmagan bo'lsa, konturni to'g'ri chiziq bilan chizib bo'lmaydi, chunki u har doim o'zgaruvchan, shunga qarab uni chizish ham o'zgaradi, ya'ni nitijasi, rasmning oxiri yo'nalishi ham o'zgaruvchandir.

Tayyorlov guruhda syujetli rasm chizishga o'rgatishning mazmuni va vazifalari.

Katta guruhda bolalar orqali egallangan ko'nikma va malakalar tarbiyachiga 6-7 yoshli bolaga o'rgatish vazifalarini murakkablashtirishi imkoniyatini beradi. Buning uchun quyidagilar kerak:

Berilgan mavzu bo'yicha rasmlarning syujetini boyitish va bolalarga syujetni mustaqil holda aniqlashga o'rgatish; Rang qobiliyatlarini rivojlantirish mustaqil holda syujetga mos rangni berishga o'rgatish. Bu yoshda bolalarning analistik fikrlashi yaxshi rivojlangani uchun tarbiyachiga berilgan mavzuga mos mazmunni mustaqil holda tanlashga bolalarga imkoniyat yaratib beradi. Masalan, "Uy qurish" mavzusi bo'lsa, bolalar o'zlari qanaqa uy, kim quryapti, qayerda kabi savollarga javob beradilar. Bolalar harakatdagi predmetning shakli o'zgarishini bilishadi shu o'zgartirishlarni tasvirlay oladilar.

XULOSA:

Xulosa qilib aytganda tasviriy faoliyat maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir. Rasm chizish, loydan buyumlar yasash va applikatsiya-bu tasviriy faoliyat turlari bo'lib, ularning asosiy vazifasi-tevarak atrofni obrazli aks ettirish hisoblanadi. Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda irodaning sifatlari-boshlagan ishini oxiriga yetkazish, oldiga maqsad qo'yib, o'shani bajarishga tomon intilish, qiyinchiliklarni yengish, o'rtoqlariga yordamlashish kabi xususiyatlar tarbiyalanadi. Shunday qilib, tasviriy faoliyat mashg'ulotlarida bolalardagi badiiy did va ijodiy qobiliyatlar o'sadi va bu orqali mакtabda o'qishga tayyorlanib boriladi. Chunki bolalar predmetlar bilan uzviy bog'lanadilar, ularning o'ziga xos sifatlari, shakli, rangi, katta kichikligi bilan tanishadilar, ularni farqini, o'xshashligini aniqlaydilar, bu esa, bolalarni sensor tarbiyalashga, ko'rgazmali, obrazli fikr yuritishga imkon beradi. Tasviriy faoliyat bolalarni axloqiy tarbiyalaydi. Bolalar ishlarida o'z hayotida, jamiyatda bulayotgan voqeа-xodisalarni aks ettiradilar, ulardan mammun bo'ladilar, xayajonlanadilar. Tasviriy faoliyat jarayonida bolalarda irodaning sifatlari-boshlagan ishini oxiriga etkazish, oldiga maqsad qo'yib, o'shani bajarishga tomon intilish, qiyinchiliklarni engish, o'rtoqlariga yordamlashish kabi xususiyatlar tarbiyalanadi. Jamoa ishini yaratish jarayonida bolalarga birbiriga yordam, kelishib ishlash kabi sifatlari ishni baholash jarayonida, ularda o'rtoqlarining ishga nisbatan real munosabatda

bo„lish, to’g’ri baxolash, o’z ishidan va o’rtoqlarining ishidan xursand bo’lish kabi axloqiy sifatlar shakllanadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. *Takomillashtirilgan “Bolajon” tayanch dasturi. T.: 2016.*
2. *Maktabgacha ta’limga qo’yiladigan davlat talablari. T.: 2017*
“Bilimdon” dasturi. T.: 2014
3. *Amirova. G.A., Sulaymonov A.P., Djurayeva B .R. Maktabgacha ta’lim muassasalarda applikatsiya mashg’ulotlari. T., 2014.*
4. *D.T Sabirova. Maktabgacha yoshdagi bolalarda tasviriyl savodxonlik elementlarini shakllantirish. (13.00.01.-Pedagogika nazariyasi va tarixi ixtisosligi bo‘yicha yozilgan dissertatsiyaning avtoreferati). T.2007*
5. *“Bola shaxsini rivojlanishining dolzarb muammolari”. Xalqaro ilmiy-amaliy anjumanining tezis va maqolalar to‘plami. 2008 yil.*